

ABBAZ DABILOV ASARLARIDA FRAZEOLIGIZMLAR

Nurjamal Rustem qizi KARAMATDINOVA

mustaqil izlanuvchi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Nukus, O'zbekiston

Nurjamal_karamatdinova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola atoqli adib Abbaz Dabilov asarlarida frazeologizmlarning, ayniqsa somatik frazeologizmlarning qo'llanilishiga bag'ishlangan. Tilning leksik qatlamida alohida o'rin tutuvchi frazeologizmlar xalqning ruhiy dunyosi, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Tahlil natijalari A.Dabilov ijodida og'iz, bosh, yurak, ko'z, til, qo'l kabi tana a'zolari nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning yuqori darajada samarali qo'llanganini ko'rsatadi. Ushbu birliklar muallifning so'z tanlash mahoratini, obrazlilik va emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni yaratishdagi uslubiy imkoniyatlarini namoyon etadi.

Tayanch so'zlar: frazeologizmlar, somatizmlar, Abbaz Dabilov asarlari, lingvopoetika, til boyligi, "Bosh" somatizmi, badiiylilik, ekspressivlik

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АББАЗА ДАБИЛОВА

Нурямал Рустем кызы КАРАМАТДИНОВА

независимый исследователь

Каракалпакский государственный университет

Нукус, Узбекистан

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию употребления фразеологизмов, особенно соматических, в произведениях известного писателя Аббаз Дабиллова. Фразеологизмы, занимающие особое место в лексическом составе языка, отражают духовный мир народа, его образ жизни и национальные ценности. Анализ показывает, что в творчестве А.Дабиллова очень эффективно используются фразеологические единицы, связанные с названиями частей тела, таких как рот, голова, сердце, глаза, язык, рука. Эти единицы демонстрируют мастерство автора в выборе слов и его стилистические возможности в создании образности и эмоционально-экспрессивной окраски.

Ключевые слова: Фразеологизмы, соматизмы, произведения Аббаз Дабиллова, лингвопоэтика, богатство языка, соматизм "голова," художественность, экспрессивность.

Har bir tilning leksik tarkibida frazeologizmlar alohida o'rin egallaydi. Turg'un so'z birikmalari millatning ma'naviy dunyosi, turmush tarzi, madaniyatini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan biridir. Unda xalqning urf-odat va an'analari,

dunyoqarashi o'z aksini topgan. Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar ma'no jihatidan juda boy bo'lib, unda odamning tana a'zolarining nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar alohida o'rin egallaydi. Frazeologizmlar tilning lug'at tarkibining ma'lum bir qismini tashkil etadi.

Qoraqalpoq tilida frazeologizmlarning semantikasi masalasi S.T.Navro'zbayeva [4], G.Aynazarova [2; 1], A.Pirniyazova [6], J.Tangirbergenov [8], G.Allambergenova [3]larning asarlarida ko'rib chiqilgan.

Ushbu matnda lingvistik tahlil, qiyosiy tahlil va badiiy-lisoniy tahlil metodologiyalaridan foydalanilgan bo'lib, A. Dabilovning asarlaridan olingan frazeologizmlarning semantik ma'nolari, ularning funksional-stilistik vazifasi va kontekstga mos o'zgargan shakllari o'rganilgan. Somatik frazeologizmlarning tilning umumiy fondidagi o'rni va muallifning individual mahoratini ko'rsatishdagi ahamiyati aniqlangan.

Qoraqalpoq tilidagi turg'un so'z birikmalarining ma'lum bir guruhini somatizmlar bilan bog'liq frazeologizmlar tashkil etadi. Ularda ko'pincha og'iz, bosh, yurak, ko'z, til va boshqa tana a'zolarining nomlari tez-tez qo'llaniladi.

Qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlarning ko'pchilik qismini odamning tashqi a'zolari nomlari qatnashgan frazeologizmlar tashkil etadi. "Somonimik leksik birliklarga odamning butun tanasi, bosh, boshning qismlari, bo'yin, ensa, tananing yuqori qismi, quyi qismi kiradi. Ulardan bo'y, bosh, bo'yin, yelka, ko'krak, qorin, son, oyoq, qo'l va boshqa yirik qismlari somatik frazeologizmlardagi meronimlik (yirik qismlari) munosabatidagi qismlar deb atash mumkin".

Qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlar ichida "*bosh*" somatizmi orqali ifodalangan birliklar katta guruhni tashkil etadi. I.Kenesbayev bosh so'zining juda unumli frazeologik dominant ekanligini aytadi. "Umuman bosh so'zi insoniyat ongida, ayniqsa turkiy xalqlarning milliy e'tiqodi, tushunchalarida muqaddas tushuncha. Bosh so'zidan yasalgan somatik frazeologizmlar boshqa tana a'zolari nomlari dominantligida kelgan frazeologizmlarga qaraganda anglatadigan ma'nosi bo'yicha, emotsional-ekspressiv bo'yog'i jihatidan ham ma'lum salmoqqa ega.

Bosh soʻzi – aql, ong, donolik, birinchilik, yuksaklik, ustuvorlik, umuman insonni boshqaruvchi kuch sifatidagi maʼnoni ham anglatadi. Shu bilan birga, bu frazeologizmlarda xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi, atrof-muhitni tanish, anglash, bilish tushunchasi, xalq qadriyatlarini, mentalitet xususiyatlarini ham qamrab oladi".

A.Dabilov asarlarida eng unumli qoʻllanilgan leksik birliklardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Shulardan somatik frazeologizmlar alohida oʻrin egallaydi.

Bosh tortmading boʻron esgan dovuldan [9;18].

Bosh tortmadi – 1) qoʻrqmadi; 2) rozi boʻldi, koʻndi [29].

Yuqoridagi misolda *bosh tortmaslik* frazeologizmi *qoʻrqmaslik* maʼnosida qoʻllangan.

Bosh qoʻsharmiz shodlik toʻylarimizda,

Doʻstlikning nishoni yoddan chiqmasin [9;14].

Bosh qoʻshdi – 1) birlashdi, uyushdi; 2) turmush qurdi, uylandi [29].

Yuqoridagi misolda *bosh qoʻshdi* frazeologizmi *birlashish*, yaʼni *qayta koʻrishish, uchrashish* maʼnolarini anglatib kelgan.

"Bosh" – odamning tana aʼzolarining oʻrni boʻyicha barcha aʼzolarining eng yuqorisida joylashgan. Bosh odamni yoʻnaltiradigan, barcha xatti-harakatlarini koʻrsatib beradigan vazifasi bilan birga, bosh miya, yaʼni, aql-idrokning joylashgan joyi. Shuning uchun bu somatizm ishtirok etgan frazeologizmlar har doim yuqorilik, aqllilik, rahbarlik maʼnolarini anglatish uchun xizmat qiladi.

Har qanday tilning frazeologik fondida odamning tana aʼzolari nomlari qatnashgan frazeologizmlar koʻpchilikni tashkil etadi. Chunki inson atrofni anglashda, atrofida sodir boʻlayotgan hodisalarga boʻlgan munosabatini bildirishda oʻz aʼzolari bilan taqqoslash va oʻxshatish natijasida paydo boʻlgan frazeologizmlardan foydalanadi. Qoraqalpoq tilida ham ular alohida oʻrin egallaydi. Ayniqsa, odamning sezgi aʼzolari nomlari bilan bogʻliq frazeologizmlar shoir asarlari tilida unumli qoʻllanilgan.

"Ko'z birligi ishtirok etgan somatizmlarda eng dastlabki nominativ belgisi – bu ko'rish bo'lib, odamning ko'rish orqali qandaydir bir narsani anglashi va ko'rishning natijasida unga baho berish mazmuni paydo bo'ladi."

Shunday bo'lib ko'rindi menga tushimda,

Ajratmadim shu ko'zni Berdaqdan ("Berdaq haqida qo'sh she'r," 35-bet).

Ko'zini uzmad (olmadi) – tikilib qaradi [29].

Xomlik chiqqan so'ng so'zidan,

Qon oqizib ikki ko'zidan [9;12].

Ko'zidan qon oqizish frazeologizmi qattiq qiynash, azob berish ma'nolarini anglatadi. Berilgan misolda jangchilarning dushman ustidan ko'rsatgan jasoratlarini, ularni qirg'inga uchratganini tasvirlash maqsadida ishlatilgan.

Odamning tana a'zolari orasida qo'lning bajaradigan vazifasi salmoqli. Qo'l – insonning bir narsani ushlaydigan a'zosi. Shuningdek, u mehnat qilish, mahorat kabi bir necha ma'nolarni ham bildiradi.

So'gis aytamiz fashistga,

Boshida miyasi kammi,

Qo'l soldi bizning hosilimizga [9;5].

Qo'l soldi – 1) o'g'irladi; 2) kuch ko'rsatdi; 3) tavakkal qildi.

Bunda qo'l soldi frazeologizmi ko'proq tinchligimizni, baxtimizni o'g'irladi degan ma'noda kelgan.

Bir ko'rgan yigitlar ohu zorli ekan,

Qo'li yetmay jig'ildoni qaynagan [9; 40].

Qo'li yetmaslik frazeologizmi yetisha olmaslik, erisha olmaslik ma'nolarini anglatadi. Berilgan misolda yigitlarning qizga uylana olmaganligini bildiriyapti.

A.Dabilov asarlarida yuqoridagi somatizmlardan tashqari oyoq, til, jigar, ich, miya kabi a'zolar bilan kelgan frazeologizmlar ham qo'llanilgan. Masalan,

O'zi kelib *oyog'ingga yiqilib* [9;46].

Oyog'iga yiqildi – yalinib-yolvordi, o'tindi, kechirim so'radi.

Shoir bo'lib chiqdim savodsiz eldan,

Nima chiqsin *gapga kelmagan tildan* [9;24].

Tili kelmadi – soʻzni toʻgʻri ayta olmadi.

Maqsad bitib, *bagʻrimni bir yozolmay* ("Berdaq haqida qoʻsh sheʻr", 32-bet).

Oʻzidan-oʻzi uyalib,

Ichi oʻtday yonadi [9;29].

Ichi yondi (kuydi) - 1) qiynaldi, qaygʻurdi; 2) qizgʻandi

Berilgan misolda ichi yonish frazeologizmi qiynalish, qaygʻurish maʼnosida qoʻllanilgan.

Qaygʻurib *ich-bagʻri kuymasa* [9;25].

Ichi-bagʻri kuyish frazeologizmi shoir asarlarida ichi-bagʻri kuyish shaklida qoʻllanilgan. Ichi-bagʻri oʻrtandi – qattiq qaygʻurdi, gʻam chekdi, qiynaldi.

Bir koʻrgan yigitlar ohu zorli ekan,

Qoʻli yetmay *jigʻildoni qaynagan* [9;40].

Jigʻildoni qaynadi – gʻazablendi, qahrlandi.

Yalqov qizning *ichini ayyorlik egalagan* [9;40].

Ichini shumlik egalash frazeologizmi juda ayyor, hiylagar, hech kimdan aldanmaydigan odamlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Bu soʻzlar arslonning,

Yetti joyidan oʻtdi [9;18].

Yetti joyidan oʻtib ketdi – qattiq qiynaldi, soʻzi qattiq botdi.

Soʻkish aytamiz fashistga,

Boshida *miyasi kemptikmi*,

Qoʻl soldi bizning mevaga [9;5].

Qoraqalpoq tilida miyasi yoʻq frazeologizmi – 1) aqlsiz, fahmsiz, tushunmaydi; 2) unutuvchan degan maʼnolarni anglatadi. Yuqoridagi sheʻr satrlarida u miyasi kemptik shaklida qoʻllanilgan. Yaʼni, dushmanni aqlsiz, aqli kam deb tasvirlash maqsadida ishlatilgan.

Necha bor *qovogʻini soldi* menga xoʻmrayib [9;32].

Demak, A.Dabilov asarlarida insonning tana aʼzolari yordamida yasalgan frazeologizmlar samarali qoʻllanilgan. Ularning ayrimlari oʻzgarishga uchrab, tarkibidagi bir komponentning oʻrniga unga maʼnodosh boshqa soʻz ishlatilgan,

boshqalari esa o'zgarishga uchragan. Bu shoirning so'z tanlash mahoratini, til birliklarini mazmunga mos ravishda o'zgartirib qo'llash qobiliyatini ko'rsatadi. Biroq ular asarning badiiyligiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Aksincha, o'quvchini yanada chuqurroq o'ylashga, fikr yuritishga undagan. Lingvopoetik birliklarning vazifasi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Ya'ni, til birliklari va ularning funksiyalari orqali asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish, o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishdir. A.Dabilov bu yo'nalishda frazeologizmlardan o'rinli foydalana olgan deyish mumkin.

"Tildagi obrazlilikni ifodalovchi birliklar ichida frazeologizmlarning o'rnini alohida. Ular o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan farqli, ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'z birikmalari. Tilimizda alohida so'zlar lug'at tarkibida qanday o'ringa tutsa, frazeologizmlar ham yakka birliklarday tayyor holda mavjud bo'ladi. Leksik birliklar sifatida so'z eng asosiy kategoriya ekan, demak frazeologizmlar ham o'ziga xos leksik-semantik kategoriya sifatida tilning boyligini ko'rsatadi... Badiiy asarda frazeologizmlarni keng qo'llashning o'zi milliy o'ziga xoslikni namoyon etadi. Frazeologizmlar xalqimizning o'tmishining ham, hozirgisining ham tarixi desak bo'ladi. Ularda xalq tafakkurining haqqoniy aksi, turmushi, urf-odati yaqqol namoyon bo'lib turadi".

Sh.Rahmatullayev: "Frazeologizmlar ham murakkab til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Frazeologizmlarga xos ma'nolar tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan artikulyatsion, aytilish o'rnini bo'yicha qo'shimcha ma'no sifatida ifodalanadi, bu ma'no frazeologizm tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga tayanmasligi ham mumkin" [7; 4], deb ta'kidlagan edi.

Tadqiqot natijalari A. Dabilov asarlarida frazeologik birliklarning, ayniqsa *bosh*, *ko'z*, *qo'l*, *til* kabi tana a'zolariga bog'liq somatik frazeologizmlarning alohida unumli qo'llanilganligini ko'rsatadi. Bu birliklarning ayrimlari (masalan, "*bosh tortmaslik*") hammaga ma'lum ma'noda, ayrimlari esa (masalan, "*miyasi kemptik*") o'rniga "*miyasi yo'q*" frazeologizmining mualliflik modifikatsiyasi) badiiy maqsadlarda o'zgarishga uchragan. Dabilov frazeologizmlardan fikrni ixcham,

aniq va obrazli bayon etishda samarali foydalangan. Ularning qo‘llanilishi asarning badiiy-estetik qiymatini oshirib, o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa shoirning so‘z tanlashdagi mahoratini va qoraqalpoq tilining boy frazeologik xazinasidan samarali foydalana olganligini isbotlaydi.

Demak, A.Dabilov asarlarida fikrni ixcham, aniq bayon etishda frazeologizmlardan unumli foydalanilgan. Agar ularning o‘rniga oddiy, jo‘n so‘zlar qo‘llanilganda asarning qiymati pasayib, o‘quvchida sezilarli estetik taassurot qoldirmagan bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde ten'les eki komponentli frazeologizmlerdin' leksika-semantikali'q ha'm stilistikali'q o'zgeshelikleri. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 2015.
2. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. – Нөкис, 2005.
3. Алламбергенова Г.И. Юсупов асарларида фразеологизмларнинг услубий қўлланилиши: Филология фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2019.
4. Наурузбаева С. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. –Ташкент: Фан, 1972.
5. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилинің фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2018.
6. Пирниязова А. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы ҳәм оның стилистикалық имканиятлары: Филология илимлериниң докторы (DSc) илимий дәрежесин алыў ушын усынылған диссертация. – Нөкис, 2020.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологи луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
8. Тәңирбергенов Ж.Қарақалпақ тилинде фейил фразеологизмлердиң лингвистикалық анализи. Философия докторы (PhD) дәрежесин алыў ушын усынылған диссертация. – Нөкис, 2020.

9. Dabilov A. Танланган асарлар. 3-том. – Нукус: Каракалпакистан, 1972.
– 295 б.